

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI
YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI FAKULTETI**

Himoyaga ruxsat etildi
Fakultet dekani, dekan
_____ U. Meliboyev
“ ___ ” _____ 2018 yil

Kafedra mudiri, v.v.b dotsent
_____ O.Sarimsakov
“ ___ ” _____ 2018 yil

5321200 – “Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi” bakalavriat ta’lim
yo’nalishi bo’yicha bitiruvchi

ISMOILOV XAKIMJON RASULJON O'G'LI ning
“Jin mashinasini takomillashtirish” mavzusidagi

DIPLOM LOYIHASI

Bitiruvchi: _____ X.Ismailov

Diplom loyihasi rahbari: _____ prof. X.T. Axmedxodjayev

Maslahatchilar: _____ dots. Z.Abduqahharov

_____ dots. O. Qozoqov

Namangan - 2018 y.

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“Yengil sanoat texnologiyasi” fakulteti

“Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi” kafedrası

“Tasdiqlayman” _____

Kafedra mudiri _____

2017 yil “6” dekabr

5321200-“Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi” ta’lim yo’nalishi

8au-14 guruhi talabasi Ismoilov Xakimjon Rasuljon O`g`liga

Diplom loyihasi bo’yicha topshiriq

1. Diplom loyihasining mavzusi “Jin mashinasini takomillashtirish” NamMTI rektorining 2018 yil “6” dekabdagi 614-sonli buyrug’ida tasdiqlangan.
2. Diplom loyihasini topshirish muddati – 2018 yil 18-iyun
3. Diplom loyihasini bajarishga doir boshlang’ich ma’lumotlar
Arrali jin sxemasi, texnik xarakteristikasi
4. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi.
Kirish
I-bob. Tadqiqot mavzusi bo’yicha analitik tahlil
II-bob. Jin mashinasini takomillashtirish
III-bob. Mehnat muhofazasi
IV-bob. Iqtisodiy qism
5. Chizma ishlar ro’yhati (chizmalar nomi aniq ko’rsatiladi)
 1. Paxta tozalash korxonasining bosh binosi
 2. PD jin ta`minlagichi sxemasi
 3. “Imperial” rusumli 128-arrali jin va 5DP-130 rusumli jinlar sxemasi
 4. Takomillashtirilgan arrali jin ishchi kamerasing va ta`minlagichining ishlash sxemasi
 5. Arrali silindr motorining yuklanish tokini vaqt bo’yicha o’zgarish ostsillogrammasi, hamda tola va chigitning sifat ko’rsatkichlari.
 6. Iqtisodiy samaradorlik hisobi

7. 6. Diplom loyihasi bo'yicha maslahatchilar

№	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi F. I. SH.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1	Kirish	X.T. Axmedxodjayev	15.01.2018	03.02.2018
2	Texnologik qism	X.T. Axmedxodjayev	15.01.2018	28.04.2018
3	Mexanika qism	X.T. Axmedxodjayev	26.02.2018	26.05.2018
4	Mehnat muhofazasi	Z.Abduqahharov	14.05.2018	26.05.2018
5	Iqtisodiy qism	O.Qozoqov	14.05.2018	02.06.2018

Topshiriqlar to'liq bajarildi _____ prof. X.T. Axmedxodjayev

7. Diplom loyihasini bajarish rejasi

№	Diplom loyihasi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
1	Kirish	03.02.2018	
2	Texnologik qism	28.04.2018	
3	Mexanika qism	26.05.2018	
4	Mehnat muhofazasi	26.05.2018	
5	Iqtisodiy qism	02.06.2018	

Diplom loyihasi rahbari: _____ prof. X.T. Axmedxodjayev

Topshiriqni bajarishga oldim: _____ X.Ismailov

Topshiriq berilgan sana: 2017 yil "6" dekabr

Kafedra mudiri: _____ M. Tojiboyev

Mundarija

KIRISH	7
I-BOB. TADQIQOT MAVZUSI BO'YICHA ANALITIK TAHLIL	9
1.1. Paxta tolasini arrali jinlarda ajratish	9
1.2. "Imperial" rusumli 128-arrali jin	17
1.3. Tola ajratish jarayonida xom ashyo valigi zichligi va tezligining ahamiyati haqida umumiy ma'lumotlar	19
I-bob bo'yicha xulosa	24
II-BOB. JIN MASHINASINI TAKOMILLASHTIRISH	26
2.1. Jin mashinasi ishchi kamerasini ta'minlash jarayonini takomillashtirish	26
2.2. Arrali jin ta'minlagichini takomillashtirish	29
2.3. Arrali jinni qo'l bilan va avtomatik boshqarishning tahlili	32
2.4. Yangi ta'minlash tizimini ishlab chiqarish sharoitida sinash	38
II-bob bo'yicha xulosa	42
III-BOB. MEHNAT MUHOFAZASI	44
3.1. Elektr xavfsizligini ta'minlash	44
3.2. Korxonalar ishlab chiqarish xonalariga elektr xavfsizligi bo'yicha qo'yiladigan talablar	45
3.3. Paxta tozalash korxonalarida elektr xavfsizligini ta'minlashning texnik uslublari va vositalari	45
3.4. Elektr himoya vositalarini sinash va ko'rikdan o'tkazish muddatlari	47
3.5. Jinlash bo'limida elektrodvigatellarni xavfsiz ishlatish	50
3.6. Arrali jinlarda xavfsizlik texnikasi	51
III-bob bo'yicha xulosa	53

IV-BOB. IQTISODIY QISM	55
IV-bob bo'yicha xulosa	60
XULOSALAR	62
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	64
ILOVALAR	67

KIRISH

Mamlakatimizda paxtachilik tarmog'ini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash, ishlab chiqarish va paxta xom ashyosini qayta ishlash rentabelligini, shuningdek, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1].

Shu bilan birga, mazkur sohadagi ishlarning haqiqiy ahvoli ishlab chiqarish jarayonlarini tezkor yangilash va modernizatsiya qilish, ilg'or texnologiyalar va korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublarini joriy etish, umuman tarmoqning jadal rivojlanishiga to'siq bo'layotgan tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligidan dalolat beradi [1].

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yetarlicha joriy qilinmaganligi oqibatida xom ashyoni qabul qilish, tashish va qayta ishlash, tayyor mahsulotlarni realizatsiya qilish jarayonlari ustidan lozim darajada hisobot va nazorat tizimi mavjud emas [1].

Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh va sifatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish, ularni yirik xorijiy bozorlarga yanada olib chiqish, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar kontsepsiyasiga muvofiq muhim yo'nalishlar belgilandi [1].

Ilmiy-texnik va tajriba-eksperimental tadqiqotlarni rivojlantirish, paxtachilik tarmog'iga innovatsion g'oya, ishlanma va texnologiyalarni joriy etish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3408-sonli qarorida aks etgan.

O'zbekistonda 2018 yilni «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili» deb e'lon qilinishi yuqoridagi qarorning bajarilishiga katta qadamlardan biri bo'ldi.

“Paxta xom ashyosini yetishtirishdan boshlab, unga dastlabki ishlov berish, mahsulotni paxta tozalash korxonalarida keyingi qayta ishlash va yuqori

qo'shilgan qiymatli tayyor to'qimachilik mahsuloti chiqarish bosqichigacha bo'lgan ishlab chiqarishni integratsiya qilishni nazarda tutuvchi rivojlanishning klaster modelini amalga oshirish" O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoatini yanada isloh qilishning muhim yo'nalishlari etib belgilandi [2].

O'zbekiston iqtisodiyotida paxtani dastlabki ishlash sohasi muhim o'rin tutadi. Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasining samaradorligi ko'p jihatdan chigitli paxtani ishlash jarayonida bir me'yorda uzatishga bog'liq.

Paxtani dastlabki ishlashning asosiy texnologik operatsiyasi – jinlash jarayonida chigitli paxtani notekis uzatilishi va xom ashyo valigi kerakli zichligini ushlab turish mexanizmlari yetarli darajada takomillashgan emasligi tufayli tola va chigitning sifati yomonlashadi.

Mavjud jinni ta'minlash tizimlarining kamchiligi – asosiy ish organlarning jinlash qobiliyati holatini nazorat vositalari bilan bog'lanishning samarali emasligi, rostlash kechikib va pog'onali amalga oshirilishi, ishlovga uzatilayotgan chigitli paxta miqdorini o'zgarishiga reaksiyaning kechikishi va xom ashyo valigi zichligini boshqarish mexanizmi samaradorligi pastligi natijasida, ayniqsa past navli chigitli paxtani ishlashda, ta'minlashning og'irlik va hajm jihatidan ortishida xom ashyo valigini ortiqcha zichlanishi imkoniyati mavjudligidir, bu esa, ayniqsa namligi yuqoriroq chigitli paxtani ishlashda, olinayotgan mahsulot hajmiga ta'sir etadi va jinlashning texnologik rejimlarini buzilishiga, tez-tez tiqilishlarga va mashinalarni to'xtab turishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jinlash jarayonini, xususan ta'minlash tizimining ishini o'rganish, hamda ularni takomillashtirish masalalari hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.

Ishning maqsadi: ushbu diplom loyihasining maqsadi 5DP-130 arrali jinining ta'minlash jarayonini takomillashtirishdan iborat.

Ishning vazifasi: mavjud 5DP-130 arrali jin mashinalarida ta'minlash jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash.

Ishning ilmiy yangiligi: ushbu diplom loyihasida arrali jinlar uchun

ta'minlagichning yangi konstruksiyasi tavsiya etiladi.

Amaliy ahamiyati: 5DP-130 arrali jinida xom ashyi valigi zichligiga qarab, ta'minlovchi valiklar tezligini avtomatik rostlash tizimi taklif etildi.

Tadqiqot ob`ekti: jinlangan tola vachigit.

Tadqiqot predmeti: ta'minlovchi valiklar tezligini avtomatik rostlash tizimli 5DP-13- arrali jini.

Ishning hajmi va tuzilishi: diplom loyihasi kirish, 4 ta bob, umumiy xulosa, adabiyotlar ruyxati va ilovalardan iborat.

Diplom loyihasi 64 betdan iborat bo'lib, 15 ta rasm, 9 ta jadval va 16 ta adabiyotlar ruyxatidan iborat.

**I-BOB. TADQIQOT MAVZUSI
BO'YICHA ANALITIK TAHLIL**

1.1. Paxta tolasini arrali jinlarda ajratish

Paxta tolasini ajratish, bu – jinlarda tolani chigitdan ajratish jarayoni hisoblanadi. Jinlar ishchi organning konstruktsiyasiga ko'ra, arrali va g'o'lalilarga bo'linadi. Tola ajratishdan maqsad talab etilgan unumdorlikda qabul sifatli va eng ko'p tola chiqarishga erishishdir.

Arrali jinlar PD rusumli ta'minlagichlar (1.1-rasm) bilan jihozlangan bo'lib, ular paxtaning jinga bir maromda va muvofiqlashgan holda uzatilishini, shuningdek, uning qo'shimcha titilishini hamda mayda iflosliklardan tozalanishini ta'minlashi lozim.

Paxta iflosliklardan tozalashda oqim tizimi va agregatlardan foydalanganda tozalangan paxtani jinga oxirgi tozalagichdan uzatish mumkin.


O'rta tolali paxtaning barcha sanoat navlari 4DP (1.2-rasm) va 5DP (1.3-rasm) arrali jinlarda qayta ishlanadi.

5DP-130 jinida arradan tolani ajratish uchun havo kamerasining konstruktsiyasi o'zgartirilgan, tovonni kengaytirilgan konsol tipidagi kolosniklar, jinni avtomatik usulda paxta bilan ta'minlash moslamasi hamda toladan iflosliklarni ajratish uchun o'lik ajratish kolosniklari o'rnatilgan.

Paxta taqsimlash shnekidan PD ta'minlagichiga uzatilib, unda titiladi va mayda iflosliklardan tozalanadi. Jinning unumdorligi, uning ta'minlash valiklarining aylanish tezligini o'zgartirish bilan sozlanadi.


Ta'minlagichlardan paxta tarnovlar orqali ishchi kamerasiga tushirilib, unda arra tsilindri tishlari ta'siriga uchraydi va xom ashyo valigini hosil qiladi.

Arra tsilindri tishlari xom ashyo valigidagi paxta tolalarini ilib, kolosniklar orasiga olib kiradi va chigit sirtidan yulib oladi. Arra tishlaridagi tolalar soplodan 55-65 m/daqqa tezlikda chiqayotgan havo oqimi bilan ajratilib, umumiy tola quvuri orqali tola tozalash dastgohiga uzatiladi. Kolosniklarning ishchi qismida tirqishlar kengligi 3,2 mm. dan katta bo'lmagani uchun chigit o'tib keta olmaydi, aylanib turgan chigit paxta valigiga ko'shilib ketadi va hamma tolalari ajralmaguncha aylanishda davom etadi.




1.1-rasm. PD jin ta'minlagichi:

- 1 – ta'minlagich valiklari; 2 – qoziqli baraban; 3 – teshikli to'r; 4 – orqa qopqoq;
5 – iflosliklarni yig'ishtirgich; 6 – tarnov.



1.2-rasm. 4DP-130 arrali jin:

1 – ta`minlagich; 2 – qoziqli baraban; 3 – ta`minlovchi valik; 4 – teshikli to`r;
 5 – chiqindi yig`uvchi kamera; 6 – kurak; 7 – o`lik konveyeri; 8 – havo kamerasi; 9
 – arrali tsilindr; 10 – chigit tarog`i; 11 – kolosnik; 12 – ishchi kamera.



1.3-rasm. 5DP-130 arrali jin:

1 – ta`minlovchi valiklar; 2 – qoziqli baraban; 3 – teshikli to`r; 4 – chiqindi yig`uvchi konveyer; 5 – o`lik konveyer; 6 – arrali tsilindr; 7 – kolosniklar; 8 – chigit tarog`i; 9 – fartuk; 10 – ishchi kamera; 11 – tarnov.

Arrali jinlarning texnik tavsifi

Ko'rsatkichlar	3XDDM	UMPD kamerasi bilan	DP-130	4DP-130	5DP-130
Unumdorlik, tola bo'yicha, kg/s					
I, III navlar bo'yicha	700	780	1700	2000	2000
IV va V navlar bo'yicha	530	550	1200	1200	1200
Havo kameradagi statik bosim, mm. suv. ust.	180-200	180-200	180-200	380	220
Tola olish uchun havo sarfı, m ³ /s	0,55	0,55	0,6-0,8	0,8 gacha	0,8 gacha
Tola tozalagichni biriktiruvchi qisqa quvurda havoning statik bosimi, mm. suv. ust.	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5
Chiqindilarni tashish uchun havo sarfi, m ³	0,1	0,1	0,2-0,3	0,2-0,3	0,2-0,3
Chigitning tukdorligi, %	12,3- 14,5	12,3- 14,5	12,3- 14,5	12,3- 14,5	12,3- 14,5
Ishchi organlarning aylanish tezligi, ayl/daq:					
arrali tsilindrda	735	735	735	735	730
qoziqli barabanniki	500	500	500	500	512
ta'minlagich g'o'lalarniki	0-14	0-14	0-14	0-14	0-14
o'lik va ifloslik konveyerlarniki	49	49	63	35	23
O'rnatilgan quvvat, kVt shu jumladan:	47,8	58,9	78,5	79,6	80,25
arrali tsilindrda	45	55	75	75	75
ta'minlagichda	2,2	2,2	2,2	2,2	2,2
ta'minlovchi valiklarda	-	-	-	0,2	0,85
Siljitishda:					
ishchi kamerada	-	1,1	0,55	1,1	1,1
o'lik va ifloslik yig'uvchi konveyerda	0,6	0,6	0,75	1,1	1,1
Texnologik tirqishlar, mm:					
kolosniklar va ishchi zonasi oralig'i	2,8-3,2	2,8-3,2	2,8-3,2	2,8-3,2	2,8-3,2

yuqori zonadagi kolosniklar orasida	5,0-3,8	5,4-3,5	5,4-3,5	5,4-3,5	5,4-3,5
qoziqli barabanning to'ri va qoziqlari orasida	15-18	15-18	10-20	10-20	10-20
havo kamerasing brusi va arrali tsilindri orasida	1-3	1-3	0,5-2,7	1-3	1-3
kolosniklar ustida arralarning chiqib turishi	46-50	46-50	47-50	47-50	47-50
o'lik koziryogi, kolosniklari va arrali tsilindr orasida	10-20	10-20	3-15	3-15	3-15
Arralar soni	80	86	130	130	130
Ishchi organlarining asosiy o'lchamlari, mm:					
arralarning tashqi diametri	320	320	320	320	320
arralarning ichki diametri	61,8	61,8	100	100	100
arralarning oralig'i	19,4	18	18	18	18
qistirmasining keng ligi	18	17	17	17	17
qistirmaning tashqi diametri	160	160	160	160	160
o'lik va ifloslik konveyerining diametri	150	150	150	150	150
qoziqli baraban diametri	400	400	400	400	400
ta'minlovchi g'o'lalar diametri	140	140	140	140	140
kurak diametri	-	-	150	150	-
Arra valining diametri	61,8	61,8	100	100	100
chetki arralar orasi	1534	1531	2323	2323	2323

Jami tolalardan ajratilgan chigitlar o'zining ishlash qobiliyatini yo'kotadi, chigitli tola valigidan ajralib, kolosnik sirtiga va u orqali pastga tushadi. Jindan chiqayotgan chigitlarning tuklilik darajasi taroq bilan o'zgartirilib turiladi.

Arra tishlari ishchi kamerasidan kolosnik orqasiga chiqqandan keyin, tolani tishlardan ajratish bilan birga o'lik va mayda iflosliklardan tozalash jarayoni bajariladi.

O'lik va mayda iflosliklar tolalar arra tishidan ajralmasdan oldin markazdan qochma kuch ta'sirida toladan ajraladi va o'lik koziryogi orqasiga o'tib ketadi. Ajratilgan iflosliklar va o'lik mashinadan vintli konveyer yordamida chiqariladi.

Jinning ta`minlagichi ostidagi iflosliklar mexanik uzatgichlar yordamida ishlab chiqarish chiqindilarini pnevmatik usulda yig'ish tizimiga uzatilib, tsexdan tashqariga chiqariladi.

Jindan ajratilgan iflosliklar va o'lik pnevmatik uzatish sistemasi yordamida jinlash tsexi chiqindilarini regeneratsiyalash mashinasiga uzatiladi. Arrali jinlar batareyasining ishlash samaradorligi mashinalarning texnik holati va qayta ishlayotgan paxtaning sifatiga bog'likdir.

Arrali jinlarning texnik tavsifi 1.1-jadvalda keltirilgan.

Paxta zavodining jin bo'limida kamida bir yoki ikkita jin batareyasi o'rnatilib, ularning har qaysisi uchtdan 5DP-130 (4PD-130) jin bilan jihozlanadi. Jinni to'la va bir tekis paxta bilan ta`minlash maqsadida taksimlash shneki oxirida jamg'arma bunkeri o'rnatilishi mumkin.

1.2. “Imperial” rusumli 128-arrali jin


“Imperial” rusumli 128-arrali jin – ikkikamerali bo'lib, kameralardan birinchisi (titish kamerasi) chigitli paxtani tozalash va alohida bo'lakchalarga ajratish uchun, ikkinchisi (xom ashyo kamerasi) jinlash uchun mo'ljallangan.

1.4-rasmda “Platt-Lyummus” firmasining 128-arrali “Imperial” rusumli jin sxemasi keltirilgan. U quyidagi asosiy ishchi organlardan iborat: titish kamerasi, xom ashyo (ishchi) kamerasi, tolaechish apparati, ulyukajratish tizimi, tashuvchi vositalar, jinni boshqarish tizimi va gidroyuritma.

Titish kamerasi yuqori va quyi ajraluvchi sektsiyalardan iborat bo'lib, yuqorisi quyisiga yo'naltiruvchi shaxta sifatida hizmat qiladi.

Titish kamerasining yuqori sektsiyasida, kameraning tashqi devori bo'lib hizmat qiluvchi, old panel bilan biriktirilgan, yong'inga qarshi klapan o'rnatilgan.

Titish kamerasiga chigitli paxta uzatilishini tezkor to'xtatilishi uchun (masalan, chigitli paxtani yonishida) old panel tashqariga suriladi va yong'inga qarshi klapan titish kamerasi kirishini berkitadi va chigitli paxtani kameraga kirishini oldini oladi.



1.4-rasm. "Imperial" rusumli 128-arrali jini

Titish kamerasi quyi seksiyasida xamma asosiy ishchi organlar joylashtirilgan: tashlovchi qoziqli baraban, qo'zg'almas chyotka, arrachali regeneratsiya barabani, titish kolosniklari, ikkiseksiyali kolosnikli panjara. Titish kolosniklari orqali kameraga arrali tsilindr segmenti kiradi.

Qoziqli barabanda 128 ta qoziq bo'lib (har bir arraga bittadan qoziq), uning diametri 165 mm. Har bir qoziq titish kolosniklarining yuqori qismida bir-oz ichiga kirib, bir vaqtda chigitli paxtani arraga uzatilishini va titish kolosniklari yuqori qismida yig'ilgan iflos aralashmalardan, arra tomonidan ilinmagan, paxta bo'lakchalaridan tozalashni amalga oshiradi.

Tashlovchi baraban qoziqlari regeneratsiya arralari orasidagi oraliqqa kirib, ularning to'xtovsiz tozalanishini amalga oshiradi.

Arrachali regeneratsiya barabani yuritma validada o'rnatilgan yaxlitmetall payvand konstruksiyada bo'lib, baraban yuzasida vintlar yordamida qotirilgan arracha segmentlardan iborat.

Tishlar uchi bo'yicha baraban diametri 135 mm. Arracha o'qlari arrali tsilindr orasidagi oraliq o'qlari bilan mos keladi.

1.3. Tola ajratish jarayonida xom ashyo valigi zichligi va tezligining ahamiyati haqida umumiy ma'lumotlar

Paxta tozalashda eng asosiy texnologik jarayon bo'lgan arrali jinlashda unumdorlik, xom ashyo valigi zichligi va tola sifatining o'zaro yaqin bog'lanishi borligi paxta tozalash amaliyotida anchadan beri ma'lum.

I.G. Boldinskiy o'z tadqiqotlarida jin unumdorligini o'sishi albatta xom ashyo valigi zichligini ortishi bilan birga sodir bo'lishini isbotladi.

Ammo zichlikning ortishi bilan unumdorlik ortishi ma'lum chegaragacha bo'lib keyin unumdorlik pasaya boshlaydi. Bu holat yonbosh yo'nalishdagi kuchlanmalarning ta'sirida xom ashyo valigi aylanish tezligi kamayib borishi bilan bog'liq bo'lib zichlik $550\div 600 \text{ kg/m}^3$ bo'lganida jarayon butunlay to'xtab qolishini G.I. Miroshnichenko isbot qilgan.

A.D. Grober jinlash jarayoni xarakteristikalarini o'rganish va matematik ifodalash bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'tkazgan. U jinlash jarayonining statistik qonuniyatlarini aniqladi. Xususan, muallif ko'rsatdiki, jin ishchi kamerasiga chigitli paxtani uzatish notekisligini kamaytirilishi va jinlash jarayonini stabillanishi paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.

Arrali jinlash asosiy tadqiqotlarining rivojlanish tahlili uni optimallashtirish yo'llarini belgilashga imkon beradi. Jin unumdorligini oshirish va tola sifatini yaxshilash uchun jinlash jarayonini stabillash zarur.

Paxta zavodlarning amaliyotida jinlashda xom ashyo valigining zichligini sub`ektiv o'rnatiladi va rostlanadi. Buning uchun jinning ta`minlanishini chigitli paxta naviga qarab ish tajribasidan aniqlanib belgilangan tezlikka o'rnatiladi, so'ng esa xom ashyo valigining zichligi va chigitlarning tukdorlik darajasini rostlashga o'tiladi. B.I. Bekmirzaev tomonidan xom ashyo valigi zichligining tola va chigit sifatiga ta`siri haqida eksperimental ma'lumotlari olingan (1.2-jadval). Ulardan ko'rinadiki, tolaning eng kam shikastlanganligi I-nav paxtada xom ashyo valigi zichligi 325 kg/m^3 bo'lganida, III-nav paxtada esa – 290 kg/m^3 bo'lganida kuzatiladi (1.5-rasm).

S. Fazildinov, R.M. Kattaxodjaevlarning ilmiy maqolasida chigitli paxtani arrali jinlashdan keyin toladagi nuqsonlar yig'indisi yirik xas-cho'p, ulyuk, tolali po'stloq va singan chigit miqdorini oshishi sabablari va bular ichida xom ashyo valigi zichligining roli tekshirilgan.

“Paxtasanoat ilmiy markazi” IChM va TTESI da o'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatdiki, tolada jinlash nuqsonlarini hosil bo'lish sabablaridan asosiysi – xom ashyo valigining ortiqcha va o'zgaruvchan zichligidir. Xom ashyo valigi zichligi oshganda to'quv jarayonida yomon ta`sir qiluvchi chigallar, kombinatsiyalangan chigallar va tugunaklar hosil bo'ladi.

Jinlash nuqsonlarini kamaytirish uchun jinlash jarayonini xom ashyo valigining nisbatan bo'sh va turg'un zichligida amalga oshirish kerak. Mualliflar xom ashyo valigi yordamida zichligi pasaytirilgan bo'lganda jinda olingan tola

sifatini tadqiq qilishgan. Tajribalarda 108F I-nav qo'lda terilgan, namligi 7,2% va jinlashdan oldingi ifloslanganligi 0,4% chigitli paxtadan foydalanilgan. Optimal diametri 150 mm va tezligi 230 r/min bo'lgan xom ashyo valigining elastik elementli arrali jin ish natijalarini 3XDD-M jin ishi ko'rsatkichlari bilan solishtirilgan.


1.2-jadval.

I- va III-navli o'rta tolali chigitli paxtani ishlashda xom ashyo valigi zichligini tola sifatiga ta'siri


I-navli chigitli paxta		III-navli chigitli paxta	
Xom ashyo valigining zichligi, kg/m ³	Toladagi jinlash nuqsonlari miqdori, %	Xom ashyo valigining zichligi, kg/m ³	Toladagi jinlash nuqsonlari miqdori, %
171,8	2,12	183,6	3,1
196,4	1,67	248,1	2,05
314,9	1,24	255,7	1,97
326,3	1,15	280,5	1,96
328,2	1,33	288,2	1,94
344,5	1,81	293,9	1,86
349,2	2,48	301,5	2,02
364,5	2,73	314,9	2,35
		337,8	2,8
		351,1	3,04

Unumdorlik oshishi bilan xom ashyo valigi zichligi ham oshadi, bu esa jinlash nuqsonlarini ortishiga olib keladi. Ikki jinning ishi solishtirilganda ko'rinadiki, xom ashyo valigi zichligi pasaytirilishi natijasida nuqsonlar yig'indisi va tolani ifloslanganligi asosan jinlash nuqsonlari hisobiga 0,5-0,6 % ga kamayadi.

Tajriba natijalari bo'yicha mualliflarning xulosalariga ko'ra jinlash nuqsonlarini kamaytirish uchun xom ashyo valigi zichligini kamaytirish kerak. Shu tadqiqot doirasidagi "Paxtasanoat ilmiy markazi" IChMning yigirish laboratoriyasining olingan toladan yigirilgan ip sifati bo'yicha ma'lumotlari ham shu fikrni tasdiqlaydi (1.3-jadval).



a)



b)

1.5-rasm. Tola nuqsonlari miqdorini (tolali po'stloq, kombinatsiyalangan chigallar, chigallar va tugunaklar) I- va III-navli chigitli paxtani jinlashda xom ashyo valigi zichligiga bog'liqligi (mos ravishda a va b)

Yigirilgan ipdagi nuqsonlarga xom ashyo valigi zichligining ta`siri

Jinning unumdorligi, kg/arra-soat	Xom ashyo valigining massasi, kg	Xom ashyo valigining zichligi, kg/m ³	Nuqsonlar yig'indisi va tolaning ifloslanganligi, %			
			Jami	Singan chigit va tolali po'stloq	Singan chigit	Tolali po'stloq
Xom ashyo valigi zichligi odatdagi						
8,8	55,3	354	2,60	1,20	0,29	0,91
10,1	64,1	410	2,73	1,30	0,36	0,94
12,3	67,8	430	2,81	1,37	0,38	0,99
Xom ashyo valigi zichligi pasaytirilgan						
8,6	39,2	300	2,05	0,81	0,15	0,66
13,8	43,5	309	2,15	0,90	0,17	0,73
15,6	44,4	312	2,13	0,93	0,20	0,73
17,3	46,8	314	2,18	0,99	0,25	0,74

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, arrali jinlash jarayonida xom ashyo valigining zichlik va tezlik parametrlari ta`minlash intensivligi va tozalangan chigitning chiqarib yuborish jarayoni orasidagi muvozanatga bog'liq. Shunga ko'ra jinlashni ta`minlash va tola, chigitni chiqarish masalalari bo'yicha bajarilgan asosiy tadqiqotlar bilan tanishib chiqdik.

I-bob bo'yicha xulosa

Paxta tolasini arrali jinlarda ajratish jarayonini o'rganib chiqdik;

PD ta'minlagichi, 4DP-130, 5DP-130 arrali jin mashinalari ishlash prinsipi, texnik xarakteristikasini o'rgandik;

Chet el arrali jin mashinalarini o'rganib chiqdik;

Tola ajratish jarayonida xom ashyo valigi zichligi va tezligining ahamiyatini o'rgandik.

II-BOB. JIN MASHINASINI TAKOMILLASHTIRISH

2.1. Jin mashinasi ishchi kamerasini ta`minlash jarayonini takomillashtirish

Arrali jin ishchi kamerasining keng tarqalgan konstruksiyasi ma`lum bo`lib, u old tomonidan fartuk, orqadan lobovoy brus, pastdan arra tsilindri o`tishi uchun kolosnikaro tirqishli alohida kolosniklardan terilgan kolosnikli panjara va yonlardan chap va o`ng yondevorlar bilan chegaralangan. Ta`minlagichdan ishchi kamerasiga tushayotgan chigitli paxta massasi aylanayotgan arra bilan o`zaro ta`sirlashib aylanayotgan xom ashyo valigini hosil qiladi.

Ushbu ishchi kamerasining kamchiligi – uzatilayotgan chigitli paxta miqdorini o`zgarishiga reaksiyani va xom ashyo valigi zichligini boshqarish mexanizmini yo`qligidir, bu esa, ayniqsa past navli chigitli paxtani ishlashda, jinlashning texnologik rejimlarini buzilishiga, tez-tez tiqilishlarga va mashinalarni to`xtab turishiga olib keladi.

Jin ishchi kamerasini takomillashtirish mavjud konstruksiyaga asoslangan bo`lib u arrali tsilindr, oldingi to`sinda qotirilgan qobirg`ali panjara, o`qda o`rnatilgan ko`chishga imkoni bor old fartuk, chigit tarog`i va quyi fartukdan iborat arrali jinning ishchi kamerasi hisoblanadi. Quyi fartuk o`qda buralishi mumkin qilib o`rnatilgan. Kamera fartuk ko`chishini nazorat qurilmasi bilan ta`minlangan. Qurilma kameraning tashqi tomonidan o`rnatilgan va qayishqoq elementlar va xom ashyo valigi zichligining mexanik datchigi bilan bog`langan ko`chish chegaralovchisidan iborat.

Lekin ushbu konstruksiya bikrlilik bilan, og`irlik va hajmni ortishida, ayniqsa past navli chigitli paxtani ishlashda, xom ashyo valigini ortiqcha zichlanishi mumkinligi bilan farqlanadi, bu esa olinayotgan mahsulot hajmiga ta`sir etadi va tiqilishlar hosil bo`lishini oldini olmaydi.

Bizning maqsadimiz – xom ashyo valigi zichligini o`zgarishiga bog`liq holda ta`minlagich valining aylanish chastotasini avtomatlashtirilgan rostlashli ishchi kamerasini yaratish.

Jinning arrali tsilindri elektromotorining umumiy iste`mol quvvati va xom ashyo valigining zichligi orasida to`g`riproportsional bog`lanish mavjudligi

ma`lum. Elektromotor tomonidan iste`mol qilinayotgan quvvat P quyidagicha aniqlanadi:

$$P = \sqrt{3} \cdot U \cdot I \cdot \eta \cdot \cos \varphi$$


bunda U va I – tok kuchlanishi va tok kuchi;
 φ – ular orasidagi fazalar surilish burchagi;
 η – foydali ish koeffitsienti.

Jinga kelayotgan elektrik tarmoqda kuchlanish o`zgarmas qilib ushlab turilganligi sababli, bu elektrik tok kuchi va xom ashyo valigi zichligi orasida o`xshash to`g`riproportsional bog`lanish mavjudligini bildiradi.

Qo`yilgan masala quyidagicha yechildi. Ishchi kamerasi old fartuk 1, oldingi to`sin 2, unda o`rnatilgan kolosnik panjara 3, arrali tsilindr 4, chigit tarog`i 5 va quyi fartuk 6 dan iborat (2.1-rasm). Arrali tsilindr 4 ning arrali vali yuklanish tokini nazorat datchigi 10 bilan ta`minlangan jinning elektromotor 9 vali bilan birlashtirilgan. Ta`minlagich elektromotori uni ta`minlash kuchlanishi chastotasining o`zgartirgichidan iborat bo`lgan ta`minlagich ishini avtomatik rostlash qurilmasi 11 bilan bog`langan.

Ishchi kamerasini yuklanish toki o`zgarishini nazorat qilish qurilmasi bilan ta`minlanishi xom ashyo valigi zichligini nazorat qilish va ishchi kamerasiga uzatilayotgan material hajmini rostlash imkonini beradi.

Arrali jinning ta`minlanishi takomillashtirilgan ishchi kamerasi quyidagicha ishlaydi. Kelayotgan chigitli paxta 8 arrali tsilindr 4 bilan kontaktga kiruvchi xom ashyo valigi 7 ni hosil qiladi. Xom ashyo valigi 7 dan kolosnik panjara 3 orqali arrali tsilindr 4 yordamida tola ishchi kamerasidan chiqariladi, bunda chigitni chiqarilishi chigit tarog`i 5 ning holati bilan rostlanadi. Xom ashyo valigi 7 ning zichligi o`zgarishida va mos ravishda arrali tsilindr 4 elektromotori 9 da yuklanish tokini o`zgarishida, ta`minlagich elektromotori ishini avtomatik rostlash qurilmasi 11ni boshqaruvchi, yuklanish tokining nazorat datchigi 10 ta`sirlanadi.



2.1-rasm. Ta`minlanishi takomillashtirilgan arrali jin ishchi kamerasining ishlash sxemasi

1 – old fartuk; 2 – oldingi to’sin; 3 – kolosnik panjara; 4 – arrali tsilindr; 5 – chigit tarog’i; 6 – quyi fartuk; 7 – xom ashyo valigi; 8 – chigitli paxta; 9 – arrali tsilindr vali elektromotori; 10 – arrali tsilindr vali elektromotorining yuklanish tokini nazorat datchigi; 11 – ta`minlagich elektromotori ishini avtomatik rostlash qurilmasi.

Ta`minlagich elektromotori ishini avtomatik roslash qurilmasi 11 ta`minlagich elektromotori ta`minlashning kuchlanish chastotasini roslash yo`li bilan uning tezligini va ishchi kamerasiga uzatilayotgan chigitli paxta 8 miqdorini shunday o`zgartiradiki, xom ashyo valigi zichligining o`rnatilgan kattaligi tiklanadi.

2.2. Arrali jin ta`minlagichini takomillashtirish

Ko`pchilik jin mashinalarida qo`llaniladigan jin ta`minlagichining konstruktsiyasi malum bo`lib, u ta`minlovchi valiklar, qoziqli baraban, to`r, xascho`plarni chiqarish transportyori, jin ishchi kamerasiga chigitli paxtani uzatish novidan iborat. Ta`minlovchi valiklar tezligini rostlanishi ta`minlovchi valik o`qida o`rnatilgan impul sli variator IVA orqali amalga oshiriladi.

Ushbu ta`minlagichning kamchiligi – asosiy ish organlarning jinlash qobiliyati holatini nazorat vositalari bilan bog`lanish yo`qligidir, bu esa jinlash texnologik rejimlarini buzilishiga, tez-tez tiqilishlarga va mashinalarni to`xtab turishiga olib keladi.

Ta`minlagichni takomillashtirishda tuzilishi bo`yicha birtomonlama davriy harakat mexanizmining yetaklovchi validan va ko`pbo`g`inli richag ko`rinishida bajarilgan uni roslash mexanizmidan tashkil topgan impul sli variatordan iborat bo`lgan arrali jin ta`minlagichi asos qilib olindi.

Ko`pbo`g`inli richag qo`l boshqaruvli richag va avtomatlashtirilgan roslash richagidan iborat. Ikkala richag bir-biri bilan qayishqoq qilib bog`langan. Qo`l boshqaruvli richag boshqaruvchi kulachok valiga erkin o`tqazilgan. Avtomatlashtirilgan boshqarish richagi boshqaruv kulachogining vali bilan biki bog`langan. Elastik bog`lanish o`zakni chegaralangan harakatli elektromagnitlar zanjiridan roslashning bir necha pog`onasi ko`rinishida bajarilgan. Elektromagnitlar o`zaro ketma-ket birlashtirilgan.

Lekin ushbu konstruktsiya bikrligi va murakkabligi bilan farqlanadi. Rostlash kechikib va pog`onali amalga oshiriladi, bu esa tiqilish holatlariga, va natijada jinlash mashinalarini to`xtashiga olib keladi.

Quyilgan vazifa – xom ashyo valigi zichligini o'zgarishiga bog'liq holda arrali tsilindr elektromotorining yuklanish toki o'zgarishini nazorati orqali jin elektromotori yuklanish tokining datchigini qo'llab ta'minlagich elektromotori valini aylanish chastotasini pog'onasiz avtomatik rostdashli ta'minlagich konstruktsiyasini yaratish.


Quyilgan masala quyidagicha yechiladi. Arrali jin ta'minlagichidagi chastota o'zgartirgich xom ashyo valigi zichligini o'zgarishi bo'yicha jin elektromotorining yuklanish toki datchigidan signal oladi va ta'minlagich elektromotorining aylanish chastotasini rostlab ta'minlovchi valiklar aylanish tezligini o'zgartiradi.

Ta'minlagichni takomillashgan rostdash qurilmasi bilan ta'minlanishi ta'minlovchi valiklar tezligini o'zgartirish hisobiga xom ashyo valigi zichligini nazorat qilishga va uzatilayotgan material hajmini rostdashga imkon beradi.

2.2-rasmda arrali jin ta'minlagichining ishlash sxemasi keltirilgan. U ta'minlovchi valiklar 1, qoziqli baraban 2, to'r 3, xas-cho'plarni chiqarish transportyori 4, jin ishchi kamerasiga chigitli paxtani uzatish novi 5, aylanish chastotasi jin elektromotorining yuklanish toki datchigi 9 dan olayotgan xom ashyo valigi zichligi to'g'risidagi signalga qarab chastota o'zgartirgich tomonidan rostdanuvchi elektromotor 6 dan iborat. Jin elektromotorining yuklanish toki datchigi jin arrali tsilindri elektromotorining elektr ta'minot joyida joylashgan.

Qoziqli baraban aylanish tezligini ta'minlovchi valiklar tezligiga bog'liq bo'lmagan holda o'zgarmas qilib saqlab turish uchun u alohida elektromotor 8 bilan ta'minlangan.

Arrali jin ta'minlagichi quyidagicha ishlaydi. Xom ashyo valigining zichligi ruxsat etilgandan katta kattalikka o'zgarganda jin elektromotorining yuklanish toki datchigi chastota o'zgartirgich 7 ga signal uzatadi. Chastota o'zgartirgich 7 ta'minlovchi valiklar 1 ni aylantiruvchi elektromotor 6 ning aylanish chastotasini rostlaydi, va shu bilan jin ishchi kamerasiga chigitli paxta uzatilish tezligini shunday o'zgartiradiki, xom ashyo valigi zichligining o'rnatilgan kattaligi tiklanadi. Jarayon pog'onasiz amalga oshadi va shu rejimda davom etadi.



2.2-rasm. Arrali jin takomillashgan ta`minlagichining ishlash sxemasi

1 – ta`minlovchi valiklar; 2 – qoziqli baraban; 3 – to`r; 4 – xas-cho`plarni chiqarish transportyori; 5 – jin ishchi kamerasiga chigitli paxtani uzatish novi; 6 – ta`minlovchi valiklar elektromotori; 7 – chastota o`zgartirgichi; 8 – qoziqli baraban elektromotori; 9 – jin elektromotorining yuklanish toki datchigi.

2.3. Arrali jinni qo'l bilan va avtomatik boshqarishning tahlili

Arrali jindagi jarayonlarni tadqiq qilishda ish davomida ishchi organlarning tezliklarini, yuklanishini, ishlash vaqtini va boshqa ko'rsatkichlarni o'zgartirish va aniqlash zarurati paydo bo'ladi.

Arrali jinlarda xom ashyo valigi zichligini roslash uchun ta'minlovchi valiklar tezligini o'zgartiriladi. Tadqiqotlarda ta'minlovchi valiklar tezligini chastota o'zgartirgich yordamida roslash taklif etilgan. Bu tizimning yana bir afzalligi – jarayon davomida ishchi organlar ko'rsatkichlarini o'zgarishini vaqt davomida kuzatish imkoni borligidadir.

Jinlash jarayoni davomida ta'minlovchi valiklar tezligini rostlanishi natijasida undagi parametrlarni o'zgarishini tekshirish maqsadida “To'raqo'rffon paxta tolasi” h.j. da ishlab chiqarish sharoitida 5DP-130 jinida tajribalar o'tkazildi. Sinovlar Namangan-77 seleksion navli I- va V-nav qo'l terimi chigitli paxtada olib borildi.

Tajribada Danfoss VLT seriyadagi chastota o'zgartirgichidan foydalanildi. Chastota o'zgartirgichni standart USB kabel orqali noutbukka ulandi. Bunda Danfoss firmasi tomonidan ishlab chiqilgan MST 10 dasturidan foydalanildi.

Chastota o'zgartirgichni va arrali tsilindrdagi yuklanish tokini aniqlash datchigini 2.3-rasmda keltirilgan sxema bo'yicha ulandi, hamda ularni o'rnatish talablariga muvofiq, elektr shitga o'rnatildi (2.4-rasm). Ta'minlovchi valiklar tezligini roslash uchun arrali jinga boshqarish pulti o'rnatildi (2.5-rasm). Boshqarish pul ti avtomatik va qo'lda boshqarish muruvatidan, qo'lda boshqarganda ta'minlovchi valiklar tezligini o'zgartirish potentsiometridan va ta'minlovchi valiklar motorini yoqish-o'chirish tugmasidan iborat.

Mavjud 5DP-130 arrali jindagi IVA variatori o'rniga 0,85 kVt quvvatli motor-reduktor o'rnatildi.



2.4-rasm. Chastota o'zgartirgich va tok transformatorini shitga o'rnatishning umumiy ko'rinishi



2.5-rasm. Ta'minlovchi valiklarni avtomatik boshqarish pultining umumiy ko'rinishi

Chigitli paxta tolasining sifat ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich nomi	Mazmuni	I-sanoat navli chigitli paxta tolasini		V-sanoat navli chigitli paxta tolasini	
		Qo'lda boshqarishda	Avtomatik boshqarishda	Qo'lda boshqarishda	Avtomatik boshqarishda
Mic	Mikroneyr	4,5	4,6	3,9	3,9
Str	HVI ning solishtirma uzilish kuchi, gs/teks	33,0	33,2	30,7	32,1
Len	Yuqori o'rtacha uzunlik, dyuym	1,15	1,15	1,15	1,15
Unf	Uzunlik bo'yicha birxillik, %	83,3	84,2	82,4	82,9
SFI	Kalta tolalar indeksi	6,3	5,8	9,8	8,8
Elg	Uzilishdagi uzayishi, %	6,9	6,8	7,1	7,4
T	Trash, ifloslik kodi, $T = Area \cdot 10$	7	7	0	0
Cnt	O'lchash darchasining maydonidagi iflos aralashmalar miqdori	12	8	51	70
Area	O'lchash darchasining maydoniga nisbatan iflos aralashmalar maydoni, %	0,8	0,7	2,1	2,1
CG	Rangi bo'yicha navi	31-1	21-2	35-2	35-2
Rd	Tolaning nur qaytarish koeffitsienti, %	78,4	79,8	58,6	60,1
Qb	Tolaning sarfshlik darajasi	8,2	8,0	15,8	15,2

Chastota o'zgartirgichga quyidagi ma'lumotlar kiritildi:

Analog chiqish signali	0-10 V
Minimal signal	4 V
Maksimal signal	6 V
Minimal signaldagi ta'minlovchi valik motorining tezligi	Maksimal
Maksimal signaldagi ta'minlovchi valik motorining tezligi	Minimal
Ta'minlovchi valik motorining maksimal tezligi	700 ay/min
Ta'minlovchi valik motorining minimal tezligi	0


2.6-rasmda MST 10 dasturida arrali tsilindr motorining yuklanish tokini vaqt bo'yicha o'zgarish ostsillogrammasi keltirilgan. Undan ko'rinib turibdiki, qurilma qo'lda boshqarilganda arrali tsilindr motorining yuklanish toki 80-130 A oraliqda (a) o'zgarmoqda. Avtomatik boshqarishda bu ko'rsatkich (b, zangor chiziq) 75-85 A oraliqda, ta'minlovchi valiklar tezligi esa unga teskari proportsional o'zgarmoqda (qizil chiziq). Ya'ni ta'minlovchi valiklar tezligini rostdash tizimi avtomatik rejimda ishlashini ko'rishimiz mumkin.

Ko'rsatkich nomi	Qo'lda boshqarish			Avtomatik boshqarish		
	1-tajriba	2-tajriba	O'rtacha	1-tajriba	2-tajriba	O'rtacha
I-sanoat navli chigitli paxta chigiti						
Mexanik shikastlanish, %	4,0	3,7	3,9	2,5	2,2	2,4
Tola qoldiq, %	1,1	1,0	1,1	0,9	1,0	1,0
V-sanoat navli chigitli paxta chigiti						
Mexanik shikastlanish, %	12,6	12,3	12,5	11,2	11,7	11,5

Qurilma o'rnatilgan arrali jindan olingan tolaning sifat ko'rsatkichlari HVI tizimida aniqlandi. Paxta chigitining sifat ko'rsatkichlari esa Chust paxta urufchilik laboratoriyasida aniqlandi. 2.3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, I-sanoat navli chigitli paxtani ishlashda chigitning mexanik shikastlanishi 3,9 % dan 2,4 % ga, tola qoldiq esa 1,1% dan 1,0 % ga yaxshilandi. V-sanoat navli chigitli



a



b

2.6-rasm. MST 10 dasturida arrali tsilindr motorining yuklanish tokini vaqt bo'yicha o'zgarish ostsillogrammasi

a. Qo'l rejimida;

b. Avtomatik rejimda (zangor chiziq), mos ravishda ta'minlovchi valiklarning aylanish tezligini o'zgarishi (qizil chiziq).

paxtani ishlashda chigitning mexanik shikastlanishi 12,5 % dan 11,5 % ga yaxshilandi.

